

# XALQARO POCHTA VA KURYERLIK JO'NATMALARI



O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan pochta va kuryelik jo'natmalari uchun bojxona nazorati tartibi



O'zbekiston Respublikasi  
Bojxona Qo'mitasi

[www.customs.uz](http://www.customs.uz)

[www.instagram.com/dbq.uz](https://www.instagram.com/dbq.uz)

[t.me/customschannel](https://t.me/customschannel)

Manzil: 100003, Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi 3 uy.  
Telefon: (998-78) 120-76-00,  
Faks: (998-78) 120-76-41



## Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari o'zi nima?



**xalqaro pochta jo'natmalari** — manzili ko'rsatilgan tegishli qadoqdagi yozma xat-xabarlar, bosma nashrlar va boshqa jo'natmalar;



**xalqaro kuryerlik jo'natmalari** — qisqa muddatlarda qo'ldan-qo'lga yetkazib berilgan (topshirilgan) holda amalga oshiriladigan pochta varaqchalari, xatlar, banderollar, bosma nashrlar va boshqa jo'natmalar;

## Olib kirishdan maqsad ikki xil bo'ladi:



### Shaxsiy ehtiyojlar uchun tovarlar

**jismoniy shaxslar tomonidan** bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan shaxsiy, oilaviy (ota-onasi, turmush o'rtog'i va farzandlari) ehtiyojlari uchun mo'ljallangan hamda **tadbirkorlik** yoki boshqa **tijorat faoliyatini** amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan tovarlar;



### Tijorat maqsadlari uchun tovarlar

bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan **ishlab chiqarish**, **tadbirkorlik** yoki boshqa **tijorat faoliyati** uchun mo'ljallangan tovarlar.

# Taqdim etiladigan hujjatlar

Quyidagi hujjatlar jo'natmalar bo'yicha bojxona deklaratsiyasi sifatida amal qiladi:

## Umumjahon pochta ittifoqining aktlarida nazarda tutilgan hujjatlar;

jismoniy shaxslarning manziliga **notijorat** maqsadlarda, shuningdek, yuridik shaxslar manziliga qiymati bazaviy hisoblash miqdorining **o'ttiz baravarigacha** bo'lgan miqdordagi xalqaro pochta jo'natmalarida yuboriladigan tovarlar uchun



## tijorat hujjatlari

jismoniy shaxslarning manziliga **notijorat** maqsadlarda, shuningdek, yuridik shaxslar manziliga qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lgan miqdordagi xalqaro kuryerlik jo'natmalarida yuboriladigan tovarlar uchun.



Boshqa hollarda jo'natmalarda yuboriladigan tovarlarni deklaratsiyalash bojxona **yuk deklaratsiyasini** berish orqali amalga oshiriladi.



## Pochta jo'natmalari uchun



**100 \$** Har bir jo'natmaga\*

Jismoniy va Yuridik shaxslarga 100 \$ (Har bir jo'natma uchun)



## Kuryerlik jo'natmalari uchun



**1000 \$** Bir kalendar chorakka\*

Yuridik shaxslarga 100 \$ (Har bir jo'natma uchun)



\* tadbirkorlik faoliyati uchun tovarlar olib o'tilganda, bojxona rasmiylashtiruvini umumiy qoidalari qo'llaniladi



**Tijorat maqsadida** tovarlar olib o'tilganda, bunday imtiyozlar taqdim etilmaydi.



## Jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan tovarlar toifasiga kirmaydigan tovarlar



markaziy isitish qozonlari



Gazonlar uchun kosilkalar



Oftobda qorayish uchun solyariylar.



Tibbiyot texnikalari



Tibbiyot, xirurgiya, stomatologiya mebeli



Sartaroshxona kreslasi



fotolaboratoriyalar uchun apparatura va uskunalar.



namoyish qilish maqsadlariga mo'ljallangan jihozlar



Ichki yanuv dvigatellari.



Tangalar, banknotlar, bank kartochkalari, jetonlar

## BOJXONA NAZORATI



Keltirilgan jo'natmalar pochta aloqasi operatorlari va provayderlari tomonidan **bojxona organining mansabdor shaxsi** ishtirokida ochiladi.



Jo'natmalarni ochish orqali **bojxona ko'rigidan** o'tkazish bojxona organining mansabdor shaxsi va pochta aloqasi operatori yoki provayderining **ikki nafar xodimi** tomonidan amalga oshiriladi



**Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari bojxona xodimlari tomonidan va ular egalarining ishtirokisiz ochilishi mumkin**

# Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarini olib kirish uchun taqiqlar va cheklovlar bormi?



## Olib kirilishi taqiqlangan va cheklov o'rnatilgan tovarlar



Giyohvandlik  
vasitalari



Terrorizm Ekstrenizm  
Va Pomografik  
materiallar



Etil spirti



Portlovchi  
moddalar



Uchuvchisiz  
uchish apparatlari



Protexnika  
vositalari



Oyin avtomatlari



Lazerli nur  
tarqatuvchilar



## Olib kirilishi cheklangan tovarlar



Giyohvandlik vositalari



Qurol-yarog, harbiy texnika va harbiy mol-mulk



Fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'q-dorilari



Psixotrop moddalar.



Uchuvchisiz uchish qurilmalari.



Dori vositalari.



Xavfli yuklar



## Olib chiqilishi cheklangan tovarlar



Giyohvandlik vositalari



Madaniy boyliklar



## Olib kirilishi taqiqlangan tovarlar



Giyohvandlik  
vasitalari



Terrorizm Ekstremizm  
Va Pomografik  
materiallar



Eil spirti



Portlovchi  
moddalar



Uchuvchisiz  
uchish apparatlari



Pirotexnika  
vositalari



Oyin avtomatlari



Lazerli nur  
tarqatuvchilar



## Ruxsat talab etiladigan tovarlar



Ozoni buzuvchi  
moddalar



Alyuminiy kukuni



Oq otar qurollar



Yuqori  
chastotalu tovarlar



Yovoyi o'sintiklar



Yovoyi hayvonlar



diniy adabiyotlar



Madaniy boyliklar

## FUQAROLAR TOMONIDAN TEZ-TEZ BERILADIGAN SAVOLLAR:



**Jismoniy shaxsning pochta va kuryerlik jo'natmalarini qay maqsadda ya'ni o'z ehtiyoji yoki tijorat maqsadida olib kelayotgani qanday aniqlanadi?**

«JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONA CHEGARASI ORQALI TOVARLARNI OLIB OTISH MAQSADINI ANIQLASH TARTIBI TO'G'RSIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA» O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI (14.08.2020) ga ko'ra:

...

6. Bojxona organi mansabdor shaxsi tovarning olib o'tish maqsadini aniqlash to'g'risida qaror qabul qilishda quyidagi mezonlarga asoslanadi:

... b) xalqaro pochta va xalqaro kuryerlik jo'natmalari orqali, shu jumladan xorijiy davlatlarning internet-do'konlarida xarid qilingan tovarlarni olib o'tishda:

- xalqaro pochta va xalqaro kuryerlik jo'natmalari oluvchining yoshi uning manziliga jo'natilgan tovarlarning xususiyatlari bilan muvofiqligi;
- bir manzil bo'yicha yashovchi bir yoki bir necha jismoniy shaxs tomonidan olib o'tiladigan bir xil turdagi tovarlarni olib o'tishning takroriyligi;
- deklaratsiyada ko'rsatilgan tovarlarni qabul qiluvchi manzilning jismoniy shaxs haqiqatda ro'yxatdan o'tgan joyi bilan farqliligi.



**Yuridik shaxslar uchun ham pochta va kuryerlik jo'natmalari uchun bojxona to'lovlarini to'lashdan imtiyoz mavjudmi?**

«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONA HUDUDIGA JISMONIY SHAXSLAR NOMIGA XALQARO POCHTA VA KURYERLIK JO'NATMALARI ORQALI KELAYOTGAN TOVARLAR NAZORATINI TA'MINLASH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA» O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI (20.07.2018) ga ko'ra:

...

Xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalari orqali O'zbekiston Respublikasi hududiga yuridik shaxslar nomiga kelayotgan qiymati 100 (yuz) AQSh dollariga teng bo'lgan tovarlardan bojxona to'lovlari undirilmaydi.



**Jismoniy shaxs qaysi holatlarda ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni taqdim etmasdan pochta va kuryerlik jonatmalatini olib kirishi mumkinmi?**

«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUVOFIQLIGI TASDIQLANISHI LOZIM BO'LGAN MUVOFIQLIKNI BAHOLASH OBYEKTлари RO'YXATLARINI TASDIQLASH TO'G'RSIDA» O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI (01.05.2021) ga ko'ra:

Jismoniy shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga chetdan olib kelingan notijorat maqsadlar uchun mo'ljallangan mahsulotlar hamda ilgari foydalanishda (iste'molda) bo'lgan mahsulotlar (bundan ov va sport qurollari mustasno) pochta va kuryerlik jo'natmalari orqali olib kirilganda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar talab qilinmaydi



# POCHTA VA KURIERLIK JO'NATMALARIDA BOJXONA TO'LOVLARINI HISOBLASH TARTIBI



$$YBT = \frac{(BQ + TX) * 30\%}{\text{(valyuta kursiga asosan so'mda hisoblanadi)}} + Y$$

- YBT - Yagona bojxona to'lovi
- BQ - Bojxona qiymati
- Y - Bojxona kirim orderi rasmiylashtirish uchun yig'im
- TX - Tashish xarajatlari



## MISOL:

Fuqaro nomiga kvartal davomida (kalendar uch oylik) jami 2-marta kuryerlik jo'natmalari kelgan bo'lib, jo'natmalarning qiymati va vazni quyidagicha:

- 1 - jo'natma qiymati 500 AQSH dollariga vazni 7 kg.ga;
- 2 - jo'natma qiymati 520 AQSH dollariga vazni 3 kg.ga;

## YECHIM:

Kvartal davomida jami 1 020 AQSH dollariga teng bo'lgan jo'natmalar kelgan bo'lib, belgilangan me'yordan ortiq qismi 20 AQSH dollariga yuqorida formula asosida yagona bojxona to'lovi hisoblanadi.

Bunda, me'yordan ortiq bo'lgan 20 AQSH dollariga tashish xarajatlari (misol uchun 40 \$) qo'shilib, 30% midorida yagona bojxona to'lovi hisoblanib, BKO rasmiylashtirish orqali milliy valyutada undiriladi (misol uchun 1 \$ = 11 300 so'm). BKO rasmiylashtirish uchun bojxona yig'imi BHMning 25% ga (bugungi kunda 82 500 so'm) teng.



$$YABT = (20 + 40) * 30\% = 18 \text{ AQSH dollari} = 203\,400 + 82\,500 = 285\,900 \text{ so'm}$$



eslatma: bojxona to'lovlari milliy valyutada bojxona to'lovlari hisoblangan kundagi rasmiy kurs bo'yicha hisoblanadi.



# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT

